

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrasida professor-o'qituvchilarining Denov tuman maktablarida 2024-2025 o'quv yilida bitiruvchi maktab o'quvchilarini oliy o'quv yurtlariga jalb etish va ularga berilgan imtiyozlarni targ'ib qilish maqsadida o'tkazilgan tadbir

BAYONNOMASI

06.05.2025 y

Oltinsoy tumani

Ishtirok etuvchilar:

1. Oltinsoy tumani 27-son umumiy o'rta ta'lim direktori – M.Mamatmo'minov
2. DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrasida professor-o'qituvchilari.
- 4.27-maktab o'qituvchilari va bitiruvchi yoshlari.

Kun tartibi:

1. "Ilmni qadrlang, ilmga intiling!" shiori ostida tadbir o'tkazish.

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrasida professor o'qituvchisi B.Nazirov so'zga chiqib, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi. Ma'lumki, so'nggi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar bo'lyapti. Shu jumladan ta'lim sifatiga e'tibor umumxalq harakatiga ham aylanib borayotganligi va bu borada yosh avlodga juda kata imkoniyatlar berilayotganligini faxr bilan aytish kerak, bugun yurtimizda yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Iqtidorli o'quvchilarimiz bunga javoban xalqaro olimpiadalar, turli tanlovlarda O'zbekistonimiz sharafiga munosib himoya qilmoqda. Bilim va iqtidorlarini namoyon etib, ko'ngillarga quvonch ulashmoqda.

Shundan so'ng, DTPI Tarix va falsafa kafedrasida o'qituvchisi M.Bebitov so'zga chiqib yakuniga yetayotgan o'quv yili so'ngida yana bir bora O'zbekiston yoshlari kelajagiga barchamiz birdek mas'ulmiz. Kamol topishiga birdek mas'ul ekanmiz, nafaqat maktabda ta'lim olish davrida, balki undan keyingi oliy ta'lim yurtlariga taxsil olishlari vaqtida ham farzandlarimizga katta e'tibor qaratish barchamizning burchimizdir. O'quvchilarga maktabni muvaffaqiyatli tamomlaganligi bilan yana bir karra qutlab, barchaga, kelgusida qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar har jihatdan sodiq, halol, vatanparvar, fidoyi, mard va jasur bo'lish bilan birga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo'yadigan yosh va istiqbolli xodim bo'lib yetishishiga ishonch bildirildi.

Shundan so'ng, DTPI Tarix va falsafa kafedrasida o'qituvchisi P.Normamatova so'zga chiqib so'zi davomida 2024/2025 o'quv yilida maktabni jami 46 nafar bitiruvchi tamomlayotganligini aytib o'tib ular barchasini oliy o'quv yurtlariga o'qib, Vatanimiz ravnaqini yuksaklarga ko'taradigan farzand bo'lishlarini tilab qoldi..


Oltinsoy tumani 27-son umumiy o'rta ta'lim

Maktab direktori:

DTPI Tarix va falsafa kafedrasida dotsent




M.Mamatmo'minov

B.Nazirov

M.Bebitov

P.Normamatova

A.Jumayev

I.Norbo'tayev